



# TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



## KICHIK BIZNES RAQOBATBARDOSHLIGI VA RESTRUKTIRIZATSIYA JARAYONLARINING BA'ZI JIHATLARI

Zebiniso Sattorova

*O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi  
magistranti*

Bozor munosabatlari sharoitida mulkchilik shakllarining rivojlanishi keng ko'lamda erkin tovar ishlab chiqaruvchilar, kichik biznes subyektlari va tadbirkorlar qatlami faoliyatini rivojlantirishni taqazo etadi. Keyingi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohatlar buning yaqqol dalilidir.

Bunga misol qilib o'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning murojaatnomasida, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, islohatlarning muhim vazifasi bo'lib qolishi ta'kidlab o'tilganligini ko'rsatish mumkin. Bunda, iqtisodiyotning bu sohasi uch asosiy masalani hal etishi lozimligiga alohida to'xtalib o'tilgan, ya'ni:

- yaqin 5 yil ichida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari mamlakat yalpi ichki mahsulotining 70 foizini ishlab chiqarishni ta'minlash lozim;
- bu soha, aholi bandligi va daromadlari o'sishining eng muhim manbai bo'lmog'i zarur;
- kichik va o'rta mulkdorlar sinfini mamlakatdagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydigan poydevor sifatida shakllantirish zarur.

Shunday ekan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyot tuzilmalarida eng oldingi o'rirlarni egallashi kerak. Buning uchun esa bugungi kunda kichik biznes subyektlari raqobatbardoshligini ta'minlash va ular faoliyatida restrukturizatsiya jarayonlarini kuchaytirish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatmoqdaki, raqobatbardoshlik va restrukturizatsiya jarayonlari bir-biri bilan uzviy bog'liq kategoriylaridir.

Raqobat – barcha mamlakatlar iqtisodiyotining rivojlanishini ta'minlovchi eng muhim omil bo'lib hisoblanadi. Bunda, raqobatbardoshlikni milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligi, tarmoqlar va tarmoqlararo raqobatbardoshlik, korxona raqobatbardoshligi, mahsulot turlari, bahosi, sifati va hokazo raqobatbardoshlik turlarga bo'lsh mumkin. Tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan holda kichik biznes raqobatbardoshligini oshirish masalalariga yondashishda turli milliy xo'jalik tizimlarida «raqobatbardoshlik» tushunchasining turli me'zonlar bilan tasniflanishini e'tiborga olish lozim. Raqobatbardoshlikni tavsiflovchi belgilar va omillarning ko'pligi natijasida ularni umumiy holda qo'yidagi uch guruhga birlashtirish mumkin:

- mikro-darajada (mahsulot turlari, sifati, bahosi va h.k.);
- mezodarajada (tarmoqlaridagi kichik biznes subyektlarining mavjud ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish samaradorligi, texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari va h.k.);
- makro-darajada (kichik biznes-subyektlarining umumiy holati, uning barqarorligi, investitsion iqlim, soliq tizimi va h.k.).





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



Shu bilan birgalikda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirishdan keyingi davrda amalga oshiriladigan islohatlar davomiyligini ta'minlash maqsadida rivojlangan mamlakatlar tajribasiga tayangan holda xususiy mulkchilik mexanizmlarini takomillashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, boshqaruv tizimini takomillashtirish maqsadida restrukturizatsiya jarayonlarini kuchaytirish maqsadga muvofiqdir. YA'ni, restrukturizatsiya – tarmoq, korxona, firma, kichik biznes subyektlari foliyati samaradorligini oshirishni har tomonlama qayta qurish, takomillashtirish demakdir. Bu faoliyatni amalga oshirishning ikki turini alohida ajratib ko'rsatish mumkin:

- strategik restrukturizatsiya;
- tarmoq, korxona, firma, kichik biznes subyektlari restrukturizatsiyasi.

Bunda, strategik restrukturizatsiya kapital mablag'lar hajmini oshirish, faoliyat shaklini kengaytirish va ishlab chiqarish hajmini oshirish kabi umumiy maqsadlarga qaratilgan bo'ladi. Ikkinci turdag'i restrukturizatsiya esa aniq maqsadlarga qaratilgan bo'lib, uni ham umumiylashgan holda uch guruhg'a bo'lish mumkin:

- tashkiliy restrukturizatsiya, bunda tarmoq, korxona, firma kichik biznes subyektlari faoliyatidagi turli xil noxush holatlardan chiqish maqsadida boshqaruv tizimini takomillashtirish, ishlab chiqarish yo'naliishlarini o'zgartirish, turli mayda bozorga moslanuvchan sohalarga bo'lish va h.k.
- moliyaviy restrukturizatsiya, ya'ni moliyaviy resurslardan samarali foydalanish, yangi moliyaviy manbalarni aniqlash, bank krediti va investitsiyalarni jalb etishni kuchaytirish va h.k.;
- funksional restrukturizatsiya, restrukturizatsiyaning ushbu turi juda ko'plab muammolarni o'z ichiga olib, ya'ni tarmoq, korxona, firma kichik biznes subyektlarda faoliyatida xom-ashyo ta'minoti, texnologik jarayonlar, mehant unumdonligi, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va hakazolarni o'z ichiga oladi.

Umuman olganda, iqtisodiyotning barcha turlri bilan shug'ullanuvchi subyektlarda restrukturizatsiya jarayonlarini kuchaytirishidan maqsadi – bu biznes qiymatini oshirishdan iborat. Demak, shunday ekan yuqorida ta'kidlanganidek «raqobatbardoshlik» va «restrukturizatsiya» tushunchalari bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Shunday qilib, «raqobatbardoshlik» va «restrukturizatsiya» jarayonlari respublikamiz iqtisodiyotining barcha jabhalarida bir-birini to'ldirgan holda olib borilishi lozim. Buning uchun O'zbekistonda, ayniqsa kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish va faoliyat ko'rsatish uchun barcha zarur infratuzilma va imkoniyatlar yaratilgan. Shu bilan birgalikda O'zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning davlat moliyaviy resurslari, xorijda muvafaqqiyatli qo'llanilayotgan usul va mexanizmlar tizimi ishlab chiqilgan. Bunda, kichik biznes tomonidan bank xizmatlariga bo'lgan talablarning barqaror o'sishi kuzatilmoqda. Shuning uchun bank tizimining asosiy vazifasi kredit berish tartibini takomillashtirish hisoblanadi, hamda iqtisodiyotning real sektorlarini moliyalashtirish va qayta tashkil etilayotgan korxonalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bo'lishi lozim.





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILYIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OVALAR



Ma'lumki, kichik biznes subyektlarini moliyalashtirishning asosiy manbasi, bu bank-krediti hisoblanadi. Hozirgi kunda bank-kreditidan foydalanishga bo'lgan talab keskin oshmoqda. Buning uchun Respublika Markaziy Banki tomonidan kichik biznes subyektlariga kreditlar berish bo'yicha bir qancha meyoriy hujjatlar qabul qilingan. Ayniqsa, kredit talabnomalari ko'rib chiqish, hujjatlar aylanishini tezlashtirish bo'yicha ko'plab chora-tadbirlar ishlab chiqilgan.

Lekin, O'zbekistonda kichik biznes raqobatbardoshligini va restrukturizatsiya jarayonlarini orqaga tortuvchi bir qancha subyektiv omillar ham mavjud, jumladan ularga quyidagilarni misol qilib ko'rsatish mumkin:

- ishlab chiqarish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalarining yetarli rag'batlantirilmayotganligi;
- kichik biznes subyektlarining huquqiy himoyalanmaganligi, ba'zi xo'jalik qonunlari va soliq tizimining zaif va nobarqarorligi;
- tadbirkorlikda xodimlar malakasining pastligi va boshqaruv tizimining takomillashmaganligi;
- kichik biznesning mamlakat sanoatidagi ulushining yetarli darajada rivojlanmayotganligi;
- turli xil boshqaruv apparati tomonidan yaratilayotgan ma'muriy to'siqlarning mavjudligi;
- raqobatbardoshlikni ta'minlovchi normal oddiy sharoitlarning yo'qligi va h.k.

Yuqorida muammolarni hal etish uchun O'zbekistonda qilinishi lozim bo'lgan eng muhim masala, bu aholi turmush darajasini ko'tarish muammosining hal qilinmaganligidadir. Buning asosiy sababi esa, o'zaro ikki bog'liq tizim davlat va biznes o'rtasidagi munosabatlarning yetarli darajada ishlab chiqilmaganligidadir. Raqobatli iqtisodiyotni shakllantirish uchun, avvalam bor uning barqarorligini ta'minlash zarur. (soliq, kredit, boj, sotib olish, innovatsiya siyosati va h.k.)

Kichik biznes va tadbirkorlikda raqobatbardoshlik va restrukturizatsiya jarayonlarini kuchaytirishda turli modellar mavjud. Masalan: sanoat rivojlangan mamlakatlarda raqobatbardoshlik asosan samaradorlik darajasi bo'yicha aniqlanadi. Unda asosan yuqori texnologiya milliy turmush darajasi ta'minlangan bo'ladi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa, buning aksi bo'lib, uning asosiy strategiyasi mamlakatdagi nisbatan past turmush darajasini ta'minlash, raqobatbardoshlikning ustuvor afzalliklaridan foydalanish hisobiga amalga oshiriladi. Shunday qilib, raqobatbardoshlik murakkab ko'p pog'onali kategoriya bo'lib, kichik biznesning iqtisodiy va eksport salohiyati, investitsion va innovatsion samaradorligini oshirishdan rag'batlantiruvchi rol uynaydi. Umuman olganda raqobatbardoshlikni shakllantirishning va restrukturizatsiya jarayonlarini kuchaytirish ayniqsa, kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishdagi muhim omil bo'lib hisoblanadi.